

## BOLAGA KITOB BERING ...

**Dilfuza Shadiyeva Urinbayevna**

Angren Universiteti  
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası  
o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ertak yoki badiiy asar, kitob o‘qishning foydali xususiyatlari, afzalliklari, foydali jihatlari, kitob o‘qishning fikrlash doirasiga ta’siri, bolalar nutqini chiroyli va ravon ifoda etishi haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kitob, kitobxon, mutolaa, ma’naviyat tili, rasmlı va ranglı kitoblar.

### ABSTRACT

This article provides information about fairy tales or works of art, useful features, advantages, useful aspects of reading books, the effect of reading books on the reader’s thinking and the human psyche, beautiful and fluent expression of children’s speech.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о сказках или произведениях искусства, полезных особенностях, преимуществах, полезных сторонах чтения книг, влиянии чтения книг на мышление читателя и психику человека, красивом и беглом изложении детской речи.

Yoshlik chog‘ida ilm olib,  
keksayganda esa ana shu ilmdan  
zavqlanib yashamoq eng to‘g‘ri yo‘ldir.  
Seneka

Yurtboshimizning: “Yoshlarimizning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do‘st bo‘lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada o‘stirishga alohida e’tibor qaratish lozim”- degan o‘gitlarini ta’lim maskanlarida yosh avlodga ta’lim va tarbiya berayotgan har bir ustozlar unutmash kerak. Yoshlar ongida umuminsoniy qadriyatlar, milliy ruh tarbiyasi, bobolarimizning dunyo ilmiga qo‘shgan hissaları haqida tasavvurlarını kengaytirish g‘oyatda muhim ahamiyatga ega. Bolalar adabiyotını, kitobxonligını uyg‘otish yosh avlod kamoloti uchun foydadan holi emasligını, o‘tmish merosi, ulug‘ mutafakkirlarning ilg‘or

fikrlarini o'qitish ma'naviy zaruriyat ekanligini angladik. Jamiyatda fikr almashtirish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar orasida fikr almashinmasa, taraqqiyot to'xtaydi. Fikr esa faqat til yordamida ro'yobga chiqadi. Tilni bilish ona tilining boy imkonoyatlaridan foydalanib, to'g'ri va ravon ifodalashdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda ertak yoki badiiy asar o'qitish bolani ilm-ma'rifatga, ta'lim-tarbiyaga chorlaydi, shu sohada faol fikrlashga, axloqiy qarashlarga o'rgatadi. Kitoblardagi g'oyalar bolalar qalbida sof insoniylik fazilatlarini rivojlanishiga, katta hayot yo'lidagi to'siqlarga ma'nan kuch- quvvat bo'lishiga sabab bo'ladi. Vataniga, xalqiga, o'z yaqinlariga qo'lidan kelgan barcha yaxshiliklarni qilish, yomonga-ma'rifat, bahillikka-sahovat bilan javob berish kabi insoniy fazilatlarini shakllanishiga yordam beradi.

Bola kamolotining asosiy qirralaridan hisoblangan to'g'rilik, mehr va sadoqat tushunchalari ertak va badiiy asarlarning asosini, mazmunini tashkil etadi. Qabohat ustidan yaxshilik g'alabasi ertak kitoblarining asosiy g'oyasidir. Ushbu hislatlar bolalar qalbida, tarbiyasida o'rin olsa, kelajak ishonchli qo'llarda bo'ladi.

Bola bog'chaga yoki maktabga kelganida o'zining ma'lum miqdordagi lug'at zahirasi ega bo'lgan, uyda bu ko'nikmani o'zlashtirib olgan bo'ladi. Bolaning lug'at zahirasi boyitish yo'llaridan biri - didaktik o'yinlar, bolani kitobga muhabbatli ruhda tarbiyalashdir. Ustoz bolani kitobni sevisga majburlashi kerak. Bu ustozni malakasiga, uslubiga, nutqiga bog'liq. Bola kichikligidanoq ertakni sevisi, tasavvurida qahramonlar bilan birga jarayonlarda ishtirok etishi, qahramonlar bilan hayolan yashashi bolani ichki nutqini o'sishiga, ruhiyatini ko'tarishga sabab bo'ladi. Bolalarga ertak yuzasidan savollar berishimiz mumkin. Savollar bola yoshiga, tafakkuriga, eshitgan ertak yohud o'qigan asari yuzasidan bo'lishi shart. Masalan,

1. Qaysi qahramon sizga yoqdi?

2. Siz uning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz?

3. Ertakda sizni rahmingizni kim keltirdi? Nimaga?, Nima uchun sehrigar bolani mukofotladi?

1. Qaysi qahramon sizga yoqdi?

2. Siz uning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz?

3. Ertakda sizni rahmingizni kim keltirdi? Nimaga? kabi savollar bola bilan suhbatlashishga, rasmga qarab tasavvur qilishga turtki bo'la oladi deb hisoblaymiz.

Vaqt o'tgan sari millat ulg'ayadi, ma'nan kamolotga erishadi. Barkamol yoshdagi shaxsning ma'naviyati va tarbiyasidagi yaxshilik, sahovat, soflik, hayo, muruvvat, andisha, adab, kamtarlik, qanoat, rostgo'ylik, insof, bag'rikenglik singari olijanob fazilatlarining bosh debochasi bu-KITOB. Bolalarni o'zlariga yoqimli va sevimli ertak va badiiy asarlar bilan tanishtirish, asarlarni jon dilidan sevib mutolaa qilishga o'rgatish ustozlardan mehnat talab qiladigan jarayon, natijasi esa olam-olam zavq bag'ishlaydi.

Yosh avlodni kamolga yetkazishda eng beminnat va ishonchli manbaa esa kitob ekanligini biz ta'lim va tarbiya targ'ibotchilari unutmashimiz kerak.

Kitoblarda rangli rasmlardan unumli foydalanish g'arb adabiyotida XVII asrlardan namoyon bo'la boshlagan. G'arb adabiyotida bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar yorqin rasmlar bilan to'ldirilgan va bu ishga o'z zamonasining eng kuchli mo'yqalam sohiblari jalb etilgan. O'qiladigan asarning qiziqarli bo'lishi kitobning mavzusiga aloqador rangli va chiroyli rasmlar mavjudligidir. Bunda bolada rangli tasavvurlar va yangi taassurotlar qo'shilib, o'qilayotgan kitobga qiziqishi ortaveradi. Bu jarayon nihoyatda murakkab holat hisoblanib, uni mukammal tashkil etish mutaxassisdan chuqur nazariy va amaliy tajribani talab qiladi. Bolaga ertak kitoblar olib berish - uni tasavvur olamini boyitishga yordam beruvchi eng kerakli manba ekanligini vaqt isbotladi. Rangli rasmlar (illyustratsiya) bilan boyitilgan kitoblar, o'zining rang-barang va takrorlanmas jozibasini bilan bolani o'ziga maftun qiladi. Biz kattalar bolalarga telefon emas, kitob sovg'a qilsak, kelajakda iymon- e'tiqodda sobit bolaning bobo va buvisi bo'lamiz. Baxtimizga bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar hozirgi kunda kitob do'kon rastalarida ko'zlarni quvontirib, o'ziga tortib turadi.

Nutq o'stirish oiladan, bolani o'rab turgan muhitdan boshlanadi desak xato bo'lmaydi. Oilada kattalar bilan muloqat qilib tarbiya topgan, buvilardan ertak eshitgan bolaning nutqida g'alizlik, so'zlarni chala talaffuz qilish deyarli sezilmaydi. Bolaligidan ko'z oldida kattalar qo'lida kitob ko'rgan bolajon kitobga muhabbatli bo'lib ulg'ayadi. Bola hozirjavob, tiyrak va erkin muloqotga bemalol kirisha oladigan bo'ladi.

Xo'sh, rangli bezatilgan kitoblar bolaga nima beradi? Bolalar kitoblariga atab chizilgan rangli bezaklar ilovalarida hamma narsa bola tasavvuridagicha aks etadi. Dunyoni anglashga yordam beradi. Bolalar uchun atalgan kitoblarda rang tasvir ilovalari asosiy sifat tarzida aks etishi kerak. Bu rasmlarsiz kichik kitobxon e'tiborini tortish mumkin emas. Bolalar kitoblariga rasm chizuvchi mo'yqalam sohiblari bolalarda badiiy munosabat shakllanishiga yordam beradilar, bu esa yosh kitobxonning kelajagida asqotadigan ajoyib xususiyatlaridan biri. Ilyustratsiya rasmlarining rang barangligi, yosh kitobxonda o'sha qahramon obraziga kirishish imkoniyatini, bir muddat bo'lsa ham o'sha qahramon o'rnida o'zini tasavvur qilish qobiliyatini yaratadi. Yosh kitobxonda ranglar uyg'unligini, intellektual ruhini uyg'otib, tabiat tasviri, san'at, badiiy adabiyot, musiqa, multfilmlar idrok qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat xodisalarini, anglashi uchun rang-tasvir vositalari bilan boyitilgan kitoblar ularning tafakkurini boyitishga sabab bo'la oladi. Shu bilan birgalikda aynan shu yoshdan kitoblar orqali tabiatga mehr, yaxshi-yomon fazilatlarni farklash, mehribonlik, mehnatsevarlik, hozirjavoblik kabi fazilatlarni yaralishiga sababchi bo'lib qoladi.

Kitob-hamisha yo'lga mash'aldek bo'lib xizmat qilgan. Hozirgi davr bolalarini rang-tasvir, illyustratsiya orqali hayot dunyosini chiroyli qilishga harakat qilsak, ko'rgan chiroyli rasmlar orqali bola ertak qahramonlarini tasavvur qiladi, unga o'xshashga intiladi.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish lozimki, bolalarni kitoblarga oshno qilib tarbiyalash ularda notiqlik nutqini, nutqiy g'alizsiz jumla tuzishni, mantiqiy fikrlashni, o'ziga xos talaffuz, ohang, kabi vositalar bilan ifodalangan chin ma'nodagi nutqiy kamolatni shakllantiradi. Ustoz kitobga mehr uyg'otishda o'zining mustaqil uslubiga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi bolalarning yoshini inobatga olgan holda ta'sirchan so'zlarni topib, rangli rasmlar bilan bezatilgan kitoblarni ko'rsatib tinglovchini rom etishi kerak. Bola nutqini ravon va chiroyli bo'lishi chiroyli tasavvurga bevosita bog'liq. Buning uchun ko'p yillik mehnat, o'qish va izlanish talab qilinadi. Mohir ustoz esa, o'z mashg'ulotlari jarayonida rang- tasvir kitoblaridan oqilona foydalanib, joziba rishtalari bilan bog'lab oladi va ko'zlagan maqsadiga erishadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Uvatov U. Donolardan saboqlar.-T., A.Qodiriy nomli xalq merosi nashr., 1994, 34-b.
2. Begmatov E. Nutk madaniyati problemasining paydo bulishi va asoslanishi.-T.: Fan, 1973.
3. G'ulomov. A.,Qobiliva B.Sh. Nutq o'stirish mashg'ulotlari-T.,O'qituvchi,1995y.